

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025-yil 08-avgustdagi №-3 sonli bayonnomasiga ko'ra №UMO-34 asosida ro'yxatga olinib tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2030 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/bo'lim	Gigiyena va radiatsion xavfsizlik kafedrası
O'quv dastur nomi	«Kommunat gigiyena»
O'qish turi	Umumiy malaka oshirish
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	D.A. Zaredinov, A.S.Xudayberganov, M.V Li, G.M Israilova, D.A. Kodirov
Siklning umumiy soati	144 kredit

Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar

				
t.f.d. professor D.A. Zaredinov	t.f.d, professor A.S. Xudayberganov	fiz. f.d. professor S.A.Bakiev	t.f.d. professor F.I. Salomova	t.f.d. katta ilmiy xodimi, dotsent G.A. Tashpulatova
				
Dsc., dotsent, M.V. Li	t.f.d., dotsent G.M. Israilova	assistant D.A. Kodirov	assistant G.A. Xasanova	

Maqsad	Kommunal xo'jalik ob'ektlarining tibbiy-profilaktika faoliyatini tashkil etish va o'tkazish sohasida sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat sog'lig'i Qo'mitasi organlari va muassasalarining vrachlari va kommunal gigiyena bo'yicha mutaxassislarining kasbiy vakolatlarini takomillashtirish va rivojlantirish.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Respublika, viloyat, shahar, tuman SEO va JSK kommunal gigiyena vrachlari va mudirlari, barcha bo'lim vrachlari
Sikl vazifalari	- ushbu yo'nalishni tartibga soluvchi xalqaro va respublika huquqiy hujjatlari sohasidagi bilimlarni takomillashtirish; - salomatlikka zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan odamlarning fizik, kimyoviy, biologik ekologik omillarini baholash ko'nikmalarini yangilash; - kasbiy qiziqishlari sohasida eng yangi texnologiyalar va usullarni o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish; - nazorat ostidagi ob'ektlarda sanitariya monitoring o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantirish; - kommunal gigiyena bo'limining yangi tashkiliy shakl va ish usullarini joriy etish, kommunal gigiyena bo'yicha tajriba almashish bo'yicha seminarlar, uchrashuvlar tashkil etish bo'yicha bilimlarni mustahkamlash; - zararli va xavfli ekologik omillarni tadqiq etishning zamonaviy gigiyenik usullari ko'nikmalarini rivojlantirish.
Sikl tarkibi	1. Modul. Ma'naviyat va ma'rifat: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2022 yil 24 martdagi "Tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksini tasdiqlash xaqida" gi № 88- sonli buyrug'i. O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurashish chora tadbirlari. 2. Modul. O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash tizimida sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoa salomatligi xizmati. 3. Modul. Atrof-muhit va aholi salomatligi 4. Modul. Atmosfera havosi gigiyenasining zamonaviy muammolari. 5. Modul. O'zbekiston respublikasi va xorijda ichimlik suvi ta'minoti muammosining hozirgi holati. 6. Modul. Suv havzalari gigiyenasi. 7. Modul. Tuproq gigiyenasi va aholi yashaydigan joylarni sanitariya tozalash. 8. Modul. Turar joy va jamoat binolarining muassasalari

	gigiyenasi. 9. Modul. Davolash-profilaktika muassasalarining gigiyenasi. 10. Modul. Aholi punktlarini rejalashtirish gigiyenasi 11. Modul. Radiatsion xavfsizlik va radiatsion gigiyenani ta'minlashning dolzarb masalalari.
O'qish bazalari	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, Gigiyena va radiatsion xavfsizlik kafedrasasi    

Simulyatsion asbob/uskunalar

